

**JANUBIY FARG'ONA XUDUDIDA REZAVOR MEVALAR  
ZARARKUNANDALARINING AGROSENOZDAGI  
TABIIY KUSHANDALARI**

*Yoqubov Abutolib, o'qituvchi  
Farg'ona davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Farg'ona hududidagi rezavor mevalarning zararkurada shiralari haqida ma'lumot keltirilgan. Ushbu zarakuradalarning miqdoriy ko'rsatkichlari, zarakurandalik xususiyatlar, klassifikatsiyasi haiqda qisqacha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Phylloxeridae, Mindaridae, Thelaxidae, Phloemyzidae, Hormaphididae, Pemphigus napaeus, P.populi, P.populinigrae, P.protospirae.

**REZAVOR MEVALAR ZARARKUNANDALARINING  
AGROSENOZDAGI TABIIY KUSHANDALARI**

Ba'zi turlar meva ichida namlik ko'pligi uchun ma'lum muddat qoladi. Shuning uchun mevalarda shilliqlarni harakatlanishini ko'rish mumkin. Ular quyosh botayotgan vaqtida va ertalab 11 gacha ko'p harakatlanadi. Kun isiganda harakati kamayadi. Bezlari kuchli rivojlangan bo'lib, sirpanganda oq yaltiroq iz hosil bo'ladi, bu izlar mevalar sifati va narxini pastlashishiga olib keladi. Qulupnayni keng iste'mol qilish tufayli hozirda maxsus ixtisoslashgan polizchilik hududlari tashkil etilmoqda. Zararkunandalarни qishlovdan chiqishi, qulupnayni barg yozayotgan davriga to'g'ri kelganligi sababli, ekin dalasida shilliqurtlar, buzoqboshlar, uzunburunchalar, tunlamlar qurtlarini uchratish mumkin. Birinchi chopiq davrida ham zararkunandalar qushlar tomonidan yo'q qilinadi. Vegetatsiyaning keyingi bosqichlarida asosiy zarar ularni bargi bilan oziqlanuvchi hasharotlar tomonidan amalga oshadi. Kemiruvchi tunlam ochilayotgan barg kurtaklarini kemiradi. Zararlovchi yer rangidagi 16 oyoqli qurt va bargo'rарlar tomonidan barglarni kemirishi, o'rgimchak ipi singari ip bilan barglarni buralishi kuzatiladi. Qurtlari to'q yashil, boshi va ko'krak qismlari qoramtil, barglar aniq o'ralmagan, buralmagan, o'rgimchak ipi sezilarsiz ko'zga tashlanadi. Qurtlari harakatsiz odimchilarni, uzunburunchalar tomonidan barglarni qirg'oqlarini va barg o'rtasida ovalsimon teshikcha hosil qilib kuzatilsa, qulupnayni gullash davrida, uzuzburuncha, poya filchasi, tunlam, nematoda, qandala zarar keltiradi. Mevalar yetilgach esa Jurjalets qo'ngizlarini quyosh botgandan 0,5 soat o'tgach kuzatish mumkin, kunduzi tuproq qatlamlariga berkinib oladi. Ular 1,5 sm kattalikda, sarg'ish tuklar bilan qoplangan, kartoshka tunlami esa meva ichiga tor yo'lakcha hosil etib, ko'p joyidan yemiradi. U mevalar ichida yashashi va qizg'ishligi bilan farqlanadi. Xuddi shunday zararlash ko'poyqlilarga ham tegishli. Bundan tashqari, ularda shiralar ham

uchraydi. Ular o'simlikni o'sishdan orqada qolishiga, barglarni buralishiga, mevani yaxshi yetilmasligiga olib keladi. U butun vegetatsiya davomida uchrasa ham, asosiy zarari yosh barglar yozilayotganda sodir bo'ladi. Kattaligi 1,5-2 mm, dastlab qanotsiz urg'ochi formalar tirik tug'ib, partonogenet yo'l bilan ko'paysa, keyin qanotli erkak va urg'ochi formalar paydo bo'lib, zararlanish darajasini kuchaytiradi. Aprel-may oylarida individlarning miqdoriy zichligi yuqori bo'ladi (2011 Mingdon). Qulupnay rezavor meva hisoblanib, poyasi enli, yo'g'onlashmagan, yosh barglari ko'p, popuk ildizli bo'lganligi sababli, zararkunandalarning oziqa manbai hisoblanadi. Madaniy o'simliklarning vegetatsiya davrini boshlanishi zararkunandalar migratsiyasini boshlanishiga olib keladi.

Qulupnayni zararkunandalardan saqlash uchun ko'chat oralariga sarimsoq ekish, yolg'on primankalar qo'yish orqali, ularni yig'ib, daladan olib chiqish kerak. Ekin ekilishi tunlam qurtlarini ko'chishiga sabab bo'ladi. Miqdoriy zichlikning o'zgarishi tashqi muhit omillariga bog'liq. Yog'ingarchilik shiralar miqdorini oshirsa, qurg'oqchilik tunlam va qattiqqanotlilar faoliyatini kuchaytiradi. 1m<sup>2</sup> joydan 1-2 ta sikadka topilsada, hajmini kichikligi, zichlikning kamligi hasharot zararini kuchsiz ekanligini ko'rsatadi. 2011-yilning II chi oy 23-sanasidan, 2012-yilning III chi oy 27-sanasigacha faoliyat ko'rsatib, zararkunandalar zararlash darajasini ko'tarilashi III-IV (2011) IV-V (2012)ga to'gri keladi. Suvning ko'p quyilishi, yer osti zararkunandalarini faoliyatini susaytirib, barg bilan oziqlanuvchi hasharotlarning faoliyatini kuchaytirishga, suvni kam quyilishi, yer osti zararkunandalari faoliyatini kuchaytirib, barg zararkunandalari faoliyatini sustlashishiga olib keladi. Ularning oziqa izlash faoliyati orqali senozlararo biotik aloqalar vujudga keladi. Bu esa ularning tabiiy kushandalarini ham, yirtqichlari va tekinxo'rлarini ham mevali bog'lar, poliz ekinlari, texnika ekinlari, o'tloqlar biosenozi kabi senozlararo aloqani vujudga kelishi va ularni turlararo ozuqa o'simligi o'txor, o'txor yirtqich va o'txor tekinxo'r agrobiosenozidagi entomofaunani shakllanishi uchun asos bo'ladi.

### **5-jadval.**

#### **Qulupnay zararkunandalaring tabiiy kushandalarini.**

Nº	Zararkunanda nomi	Tabiiy kushandasini	Oziqlanish usuli
1	Bargxo'r qurtlar	Taxin pashshalari	Parazitlik
2	Qulupnay shirasi	Yetti va ikki nuqtali tugmacha qo'ngiz	Yirtqich
3	Tunlam qurtlari	Gulbadan qongiz	Yirtqich
4	Shiralar	Oltinko'z	Yirtqich

**ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

- 1.Арнолди К.В. Арнолди А.В Опредилител насекомих поврежденних дереве.1960г.
- 2.Алимджанов Р.А. Полезные и вредные “без позвоночные животные Узбекистана” Т.Фан. 1967 й.
- 3.Абашкевич Б.П. Рол многоядных ентомофогов ва агроценозе овощного поле- Сб. Кишенев 1974г.
- 6.Бей-бийенко. Г.Я.идр. Сельскохозяйственная ентомология. Селхозгиз,М.-Л.,1963г.
7. Ботирова. Д., Каххарова Г, Акбаров Д.. - Европа иттифоки мамлакатлари бозорларига қандай қилиб экспорт қилиш керак Тошкент, 2015. - 66 б.
- 8.Болайев Е.Б, Филатов В.П, Москарова И.С. Естествение регулятори численности вредителей растений-защита растений, Н5.1977г.
- 9.Богомбова А.С. Азилов Б. материали по изучению ентомофогов хлопковой совки. Вредители сельскохозяйственных культур Узбекистана и их ентомофоги Т.Фан. 1970г.
- 10.Бондаренко Н.В. Биологическая защита растений. Л.Колос 1978г.
- 11Боголюбова А.С. Адилов Б. Вредители сельскохозяйственных культур Узбекистана и их ентомология. Т.Фан.1960г.
- 12.Давлетнина А.Г. Тли род Апхис. Л. Узбекистана. Ташкент. Фан, 1964й.
- 13.Мустафаев С. М. Ботаника Тошкент «Ўзбекистон» 2002
- 14.Нарзикулов М.Н, Жуманов Б.Ж. Особенности интергрированой борбы с озимой совков-хлопковостью Н12. 1979г.
- 15.Хужаев Ш.Т.Ўсимликларни зараркунандалардан уйгуналашган химоя килишнинг замонавий усул ва воситалари. Тошкент-2015й.
- 16.Яхонтов В.В. Екология насекомых. М.Высшая школа 1969г.

**Foydalanilgan internet saytlari.**

1. <http://www.zoodrug.ru>.
2. <http://www.floralworld.ru>
3. <http://www.about-plants.ru>